

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirining  
2025 yil "23" iyundagi  
180-sonli buyrug'iga  
2-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ONA VA BOLA SALOMATLIGI  
ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**BACHADON BO'YNI SARATONI SKRININGGI,  
SERVIKAL INTRAEPITELIAL NEOPLAZIYANI  
DIAGNOSTIKA VA BOSHQARUV TAKTIKASI  
BO'YICHA  
MILLIY KLINIK PROTOKOL**

**TOSHKENT 2025**



«KELISHILGAN»

«OvaBSIATM» DM direktori

N. S. Nadiryanova

» \_\_\_\_\_ 2025 yil

**BACHADON BO‘YNI SARATONI SKRININGGI,  
SERVIKAL INTRAEPITELIAL NEOPLAZIYANI  
DIAGNOSTIKA VA BOSHQARUV TAKTIKASI  
BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL**

**TOSHKENT 2025**

|                            |    |
|----------------------------|----|
| Kirish qismi .....         | 5  |
| Asosiy qism .....          | 8  |
| Ilovalar.....              | 26 |
| Adabiyotlar ro‘yhati ..... | 28 |

## **1. Kirish qismi**

### KXT-10 bo'yicha kodlar:

|   |  |
|---|--|
| <b>N87</b>  | Bachadon bo'yni displaziyasi (bachadon bo'yni intraepitelial neoplaziyasi), bachadon bo'yni karsinomasi in situ istisno qilinadi (D06).  |
| <b>N87.0</b>  | Bachadon bo'yni engil darajadagi displaziyasi, I darajali bachadon bo'yni intraepitelial neoplaziyasi (CIN I), past darajadagi yassi hujayrali intraepitelial zararlanish (LSIL).  |
| <b>N87.1</b>  | Bachadon bo'yni o'rtacha darajadagi displaziyasi, II darajali bachadon bo'yni intraepitelial neoplaziyasi (CIN II).  |
| <b>N87.2</b>  | Boshqa ko'rsatilgan kasallik guruhlariga kiritilmagan og'ir bachadon bo'yni displaziyasi, bachadon bo'yni in situ og'ir displaziya va karsinomasini va ko'rsatmasdan III darajali bachadon bo'yni intraepitelial neoplaziyani (CIN III) istisno qiladi. (D06). |
| <b>N87.9</b>  | Bachadon bo'yni displaziyasi aniq bo'lmagan holat  |
| Havola: <a href="https://mkb-10.com/index.php?pid=14494">https://mkb-10.com/index.php?pid=14494</a> |  |

### KXT-11 bo'yicha kodlar:

|   |  |
|---|--|
| <b>GA15.7</b>   | Bachadon bo'ynining past darajadagi yassi hujayrali intraepitelial zararlanishi  |
| <b>2E66.2</b>   | Bachadon bo'yni yuqori darajadagi intraepitelial yassi hujayrali zararlanishlari: bachadon bo'yni intraepitelial neoplaziyasi II daraja, bachadon bo'yni III darajali intraepitelial neoplaziya. |
| <b>QA09.4</b>   | Bachadon bo'yni neoplazmalarini aniqlash uchun maxsus skrining tekshiruvi - servikal neoplaziya uchun skriningi  |
| Havola: <a href="https://icd.who.int/ct/icd11_mms/ru/release">https://icd.who.int/ct/icd11_mms/ru/release</a> |  |

**Protokolni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish sanasi:** 2025 yil, qayta ko'rib chiqish sanasi 2030 yil yoki yangi asosiy dalillar mavjud bo'lganda. Taqdim etilgan tavsiyalarga kiritilgan barcha o'zgartirishlar tegishli hujjatlarda e'lon qilinadi.

**Ushbu klinik protokol va standartni ishlab chiqish uchun mas'ul muassasa:** Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

### Ishchi guruh rahbarlari:

| <b>№</b> | <b>F.I.Sh.</b>   | <b>Lavozimi</b>  | <b>Ish joyi</b>                                      |
|----------|------------------|--|--|
| 1        | Nadirxanova N.S. | Direktor, t.f.d.   | RIOvaBSIATM  |
| 2        | Alieva D.A.      | "Oila va nikoh" ilmiy-maslahat poliklinikasi mudiri, t.f.d., professor | RIOvaBSIATM  |
| 3        | Fazilova F.A.    | Onalik va bolalikni muhofaza qilish bosh boshqarmasi boshlig'i, t.f.n. | O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi |

### Tuzuvchilar ro'yxati:

| <b>№</b> | <b>F.I.Sh.</b>  | <b>Lavozimi</b>                           | <b>Ish joyi</b> |
|----------|-----------------|---|-----------------|
| 1        | Asatova M.M.    | akusher-ginekolog, t.f.d., professor      | TXKMRM          |
| 2        | Nishanova F.P.  | akusher-ginekolog, t.f.n.                 | RIOvaBSIATM     |
| 3        | Irgasheva S.U.  | akusher-ginekolog, t.f.d.                 | RIOvaBSIATM     |
| 4        | Agababyan L.R.  | akusher-ginekolog, t.f.n., v.i. professor | SamDTU          |
| 5        | Abduraimov T.F. | akusher-ginekolog                         | RIOvaBSIATM     |
| 6        | Axmedova M.O.   | akusher-ginekolog                         | RIOvaBSIATM     |
| 7        | Mirzaeva Y.K.   | akusher-ginekolog                         | RIOvaBSIATM     |
| 8        | Ikramova Sh.X.  | akusher-ginekolog                         | RIOvaBSIATM     |

### Taqrizchilar:

| <b>№</b> | <b>F.I.Sh.</b> | <b>Lavozimi</b>   | <b>Ish joyi</b> |
|----------|----------------|-------------------|-----------------|
| 1        | Yusupov U.Y.   | t.f.d., professor | RIOvaBSIATM     |

|   |                    |                                      |  |
|---|--------------------|--------------------------------------|--|
| 2 | Kattaxodjaeva M.X. | Kafedra mudiri, t.f.d.,<br>professor | Toshkent davlat stomatologiya<br>instituti akusherlik va ginekologiya<br>kafedrası |
|---|--------------------|--------------------------------------|--|

*RIOvaBSIATM – Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi*  
*TXKMRM - tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi*  
*SamDTU – Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

Klinik protokol oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, O'zbekiston akusher-ginekologlar assosiasiyasi a'zolari, sog'liqni saqlash tashkilotchilari (RIOvaBSIATM DM filiallari direktorlari va ularning o'rinbosarlari), akusherlik yordam tizimining xududiy muassasalari shifokorlari ishtirokida ishchi guruhning yakuniy yig'ilishida norasmiy konsensusga erishish orqali muhokama qilindi va tasdiqlash uchun tavsiya etildi), 2024 yil "\_6\_" \_dekabr kuni onlayn formatida o'tkazilgan yig'ilishning № 1-son Bayonnomasi. Ishchi guruh rahbari, "RIOvaBSIATM" Davlat muassasasi direktori, t.f.d., N.S. Nadirxanova.

Klinik Protokol Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi ilmiy Kengashi tomonidan ko'rib chiqildi va tasdiqlandi "\_17\_" \_dekabr \_2024 yil, №\_15\_ - sonli Protokol, Ilmiy Kengash raisi – t.f.d., professor M.M. Asatova.

#### Tashqi ekspert bahosi:

| № | F.I.Sh.           | Lavozimi   | Ish joyi   |
|---|-------------------|--|--|
| 1 | Zarochenseva N.V. | Ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, t.f.d., professor<br>Rossiya Fanlar akademiyasining t.f.d.,<br>professor | DBSSM MV "Akad. V.I. Krasnopol'skiy nomidagi Moskva mintaqaviy akusherlik va ginekologiya ilmiy-tadqiqot instituti" (Moskva, Rossiya Federasiyasi) |

#### Qisqartmalar ro'yhati:

|                 |   |
|-----------------|---|
| <b>AGS</b>      | atypical glandular cells - atipik bezli hujayralar  |
| <b>ASC-H</b>    | atypical squamous cells cannot exclude HSIL – atipik yassi epiteliya hujayralari, og'ir zararlanishni istisno qilib bo'lmaydi |
| <b>ASCUS</b>    | atypical squamous cells of undetermined significance – aniq bo'lmagan tarkibli atipik yassi epiteliya hujayralari             |
| <b>CIN</b>      | cervical intraepithelial neoplasia - bachadon bo'yni intraepitelial neoplaziyasi  |
| <b>CIN II +</b> | CIN II, CIN III, bachadon bo'yni saratoni   |
| <b>CIS</b>      | carcinoma in situ   |
| <b>HSIL</b>     | high-grade squamous intraepithelial lesions – yuqori darajadagi yassi hujayrali intraepitelial zararlanishi                   |
| <b>LEEP</b>     | loop electrosurgical excision procedure – halqasimon elektroxirurgik ekssizion muolaja  |
| <b>LLETZ</b>    | large loop excision of the transformation zone – transformasiya zonasining katta halqasimon ekssiziyasi                       |
| <b>LSIL</b>     | low-grade squamous intraepithelial lesions – past darajadagi yassi hujayrali intraepitelial zararlanishi                      |
| <b>NILM</b>     | negative for intraepithelial lesion or malignancy – intraepitelial zararlanishlarning yo'qligi                                |
| <b>SIL</b>      | squamous intraepithelial lesions – yassi hujayrali intraepitelial zararlanishi  |
| <b>VIA</b>      | sirka kislotasi bilan ishlov berilgandan keyin bachadon bo'yni vizual tekshiruvi  |
| <b>AOE</b>      | aseto-oq epiteliy   |
| <b>AKT</b>      | anormal kolposkopik tasvir  |
| <b>OPV</b>      | odam papilloma virusi   |

|                 |  |
|-----------------|--|
| <b>YuKX OPV</b> | yuqori kanserogen xavfga ega odam papillomavirusi    |
| <b>ËRT</b>      | yordamchi reproduktiv texnologiyalar                 |
| <b>DNK</b>      | dezoksiribonuklein kislotalari                       |
| <b>DEK</b>      | diatermoelektrokoagulyasiya                          |
| <b>SS</b>       | suyuqlik sitologiyasi                                |
| <b>TZ</b>       | transformasiya zonasi                                |
| <b>JYBYuI</b>   | jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar             |
| <b>ISE</b>      | istmik-servikal etishmovchilik                       |
| <b>KOK</b>      | kombinatsiyalangan oral kontraseptivlar              |
| <b>KS</b>       | kolposkopiya   |
| <b>KQYaE</b>    | ko'p qavatli yassi epiteliy                          |
| <b>PZR</b>      | polimeraza zanjiri reaksiyasi                        |
| <b>BBS</b>      | bachadon bo'yni saratonini                           |
| <b>TEA</b>      | tromboembolik asoratlar                              |
| <b>CIN</b>      | bachadon bo'yni intraepitelial neoplaziyasi          |
| <b>SE</b>       | silindirik epiteliy                                  |
| <b>BBRTJK</b>   | bachadon bo'yni radioto'lqin jarrohlik konizatsiyasi |

**Protokolning maqsadi:** tibbiyot xodimlarini zamonaviy ilmiy asoslangan ma'lumotlar va O'zbekiston Respublikasida bachadon bo'yni saratonini tashkiliy skrining qilish va bachadon bo'yni saraton oldi kasalliklarini davolash tizimini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha dalillarga asoslangan tavsiyalar bilan ta'minlash.

**Bemorlar toifasi:** 30-65 yosh oralig'idagi ayollar.

**Klinik protokol foydalanuvchilari:** oilaviy shifokorlar; akusher-ginekologlar; onkologlar; laboratoriya diagnostikasi shifokorlari; sog'liqni saqlash tashkilotchilari; tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari; klinik rezidentlar; magistratura talabalari; doktorantlar; tibbiyot oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari; ayollar, ularning oilalari va g'amxo'rlik qiluvchilar.

**Protokol tavsiyalariga rioya qilish:**

Protokol nashr paytida mavjud bo'lgan dalillarga asoslangan umumiy tavsiyalar beradi.

Agar amalda ushbu protokolning tavsiyalaridan chetga chiqish to'g'risida qaror qabul qilinsa, shifokorlar bemorning kasallik tarixida quyidagi ma'lumotlarni hujjatlashtirish kerak:

- bu qarorni kim qabul qilgan;
- bayonnomadan chetga chiqish to'g'risidagi qarorning batafsil asoslari;
- bemorni boshqarish bo'yicha qanday tavsiyalar qabul qilingan.

Tavsiyalar klinik amaliyotning barcha elementlarini qamrab olmaydi, lekin shifokorlar bemorning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, hurmatli maxfiy aloqa tamoyiliga rioya qilgan holda bemorlar bilan individual boshqaruvni muhokama qilishlari kerakligini anglatadi. Bunga kiradi:

- Agar kerak bo'lsa, tarjimon xizmatlaridan foydalanish;
- Bemor bilan maslahatlashish va ma'lum bir manipulyatsiya yoki ma'muriyat taktikasi uchun xabardor roziligini olish;
- Qonuniy talablar va kasbiy xulq-atvor standartlariga rioya qilish doirasida yordam ko'rsatish;
- Umumiy va mahalliy talablarga muvofiq har qanday boshqaruv va parvarish taktikasini hujjatlashtirish.

**Profilaktika, diagnostika, davolash va reabilitatsiya usullari (profilaktika, diagnostika, terapevtik, reabilitatsiya tadbirlari) bo'yicha tavsiyalarning (TID) ishonchlilik darajasini baholash shkalasi):**

|   |
|---|
| <b>Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi</b> |
|---|

|          |  |
|----------|--|
| <b>A</b> | Kuchli tavsiya (barcha ko‘rib chiqilgan ishlash mezonlari (natijalari) muhim, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega, ularning qiziqish natijalari bo‘yicha xulosalari izchil)   |
| <b>B</b> | Shartli tavsiya (barcha ko‘rib chiqilgan ishlash mezonlari (natijalari) muhim emas, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega emas va / yoki qiziqish natijalari bo‘yicha ularning xulosalari izchil emas)                |
| <b>C</b> | Zaif tavsiyalar (tegishli sifat dalillarining etishmasligi (barcha ko‘rib chiqilgan ishlash mezonlari (natijalari) ahamiyatsiz, barcha tadqiqotlar past uslubiy sifatga ega va ularning qiziqish natijalari bo‘yicha xulosalari izchil emas) |

## 2. Asosiy qism

### 2.1. Kirish.

Ayolning hayoti uchun xavfli bo‘lgan bachadon bo‘yni asosiy patologiyasi bachadon bo‘yni saratoni (BBS) hisoblanadi. Bachadon bo‘ynini tekshirishning barcha diagnostika usullari va bachadon bo‘yni tekshiruv usullari ushbu kasallik va uning saraton oldi holatlarini erta va differensial tashxislash uchun ishlab chiqilgan.

Butun jahon miqyosida bachadon bo‘yni saratoni ayollar orasida ko‘krak saratonidan keyin ikkinchi eng keng tarqalgan saraton hisoblanadi. 2018-2030 yillar oralig‘ida bachadon bo‘yni saratoni bilan kasallanishning o‘rtacha yillik darajasi 570 mingdan 700 mingga, o‘rtacha yillik o‘lim darajasi esa 311 mingdan 400 mingga ko‘payishi prognoz qilinmoqda.

Jabrlanganlarning 85% dan ortig‘i dunyodagi eng qashshoq mamlakatlarda yashovchi yosh va past ma‘lumotli ayollardir. Ularning ko‘pchiligining yosh bolalari ham bor, ularning omon qolishi keyinchalik onaning bevaqt o‘limi tufayli qiyinlashadi.

Dunyo bo‘ylab bachadon bo‘yni saratonidan o‘limning 10 tadan to‘qqiztasi past va o‘rta daromadli mamlakatlarda ro‘y bermaqda. Bundan tashqari, OIV bilan kasallangan ayollar, OIV-salbiy ayollarga qaraganda, bachadon bo‘yni saratoni bilan kasallanish ehtimoli olti marta ko‘proq.

Global miqyosda 2020 yilda bachadon bo‘yni saratoni bilan bog‘liq yangi holatlar va o‘limlarning taxminan 90 foizi past va o‘rta daromadli mamlakatlarda sodir bo‘lgan. Bu bachadon bo‘yni saratoni asosan oldini olish mumkin bo‘lgan kasallik bo‘lishiga qaramay, kasallanish va o‘lim darajasi yuqorilgicha qolayotganini tasdiqlaydi. Buning asosiy sababi - bachadon bo‘yni saratonining erta bosqichlarida va saratondan oldingi kasalliklarni erta aniqlash va davolash orqali bachadon bo‘yni saratonining oldini olish dasturlari mavjud emasligidir. Bachadon bo‘yni saratonidan oldingi zararlanishlar majburiy davolash bilan samarali skrining dasturlarisiz, kasallik odatda ilg‘or bosqichda, samarali davolash uchun juda kech bo‘lganda aniqlanadi va shuning uchun o‘lim darajasi yuqori.

Bachadon bo‘yni saratoni bir necha yil, ba‘zan o‘n yillar davomida bachadon bo‘yni intraepitelial neoplaziyasi oldindan bo‘ladi. Bunday uzoq vaqt davomida ularni oddiy organlarni saqlovchi ekssiziyalar yordamida invaziv saraton rivojlanishidan oldin aniqlash va davolash mumkin.

BBS – bu bachadon bo‘yni epiteliyasining yomon sifatli o‘smasi bo‘lib, yuqori samarali va iqtisodiy jihatdan foydali skriningga mo‘ljallangan kasalliklar talablarga mukammal mos keladi: keng tarqalganligi va ijtimoiy ahamiyati, ko‘rish mumkin bo‘lgan shakli, kasallikning saraton oldi holati uzoq davom etishi, erta aniqlanish va yuqori samarali davolash orqali tug‘ruq qobiliyatini saqlab qolish imkoniyati, shuningdek, sezgir va aniq diagnostika testlarining mavjudligi.

JSST ma‘lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 30 yil ichida ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli yaxshilangan mamlakatlarda bachadon bo‘yni saratoni bilan kasallanish va bachadon bo‘yni saratoni tufayli o‘lim darajasi sezilarli darajada kamaygan. Bu, asosan, samarali sitologik skrining joriy etilgani, shuningdek, saraton oldi kasalliklari va bachadon bo‘yni saratonining dastlabki bosqichini o‘z vaqtida davolash samarasidir.

[https://unitaid.org/assets/Cervical\\_Cancer\\_Technology-landscape-2019.pdf](https://unitaid.org/assets/Cervical_Cancer_Technology-landscape-2019.pdf)

Yaqinda ba‘zi sitologik skrining dasturlari yangi testlar bilan to‘ldirila boshlandi, masalan, yuqori onkogen tip odam papillomavirusini (OPV) aniqlash. Ma‘lumki, doimiy odam papillomavirusi infeksiyasi bachadon bo‘yni saratonining deyarli barcha turlarining sababi hisoblanadi.

Infeksiyalanish va bachadon bo‘yni saratoni rivojlanishi o‘rtasidagi uzoq davr bachadon bo‘yni saratoni bilan kasallanish va o‘limni kamaytirishda skrining samarali bo‘lishiga imkon beradi. Jinsiy faol ayollar va erkaklarning ko‘pchiligi hayotlarining ma‘lum bir davrida, ba‘zan bir necha marta OPV bilan kasallanadilar. Infeksiyalanganlarning 90% dan ortig‘ida infeksiya 2 yil ichida hech qanday davolanishsiz o‘z-o‘zidan yo‘qoladi.

Bachadon bo‘yni saratoni bo‘yicha qayg‘uli statistik ma‘lumotlarga qaramay, bu kasallikning eng fojiali tomoni shundaki, biz ko‘pchilik holatlarning oldini olishni bilamiz, ammo bachadon bo‘yni saratoni hali ham dunyoda ko‘plab holatlar va o‘limga sabab bo‘lmoqda.

Samarali boshqariladigan skrining dasturlari bachadon bo‘yni saratoni holatlarining 80 foizigacha oldini olishi haqida kuchli dalillar mavjud. Bunday dasturlarning afzalliklari Finlyandiyada, Buyuk Britaniyada va bunday dasturlar joriy etilgan boshqa bir qator mamlakatlarda ishonchli tarzda isbotlangan.

<https://publications.iarc.fr/Book-And-Report-Series/Iarc-Handbooks-Of-Cancer-Prevention/Cervix-Cancer-Screening-2005>

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bachadon bo‘yni saratonining oldini olish va nazorat qilish global dasturi 2017-yilning 23-26-oktabr kunlari O‘zbekistonda birinchi missiyasi o‘tkazilgan. O‘zbekiston Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan Evropa mintaqasida BMTning bachadon bo‘yni saratonining oldini olish va nazorat qilish bo‘yicha global qo‘shma dasturining birinchi bosqichida ishtirok etish uchun tanlandi.

Global strategiya sog‘liqni saqlash huquqini inson huquqi sifatida belgilovchi xalqaro hujjatlarga mos keladi (Inson huquqlari bo‘yicha kengash tomonidan 2019-yil 26-sentyabrda qabul qilingan rezolyusiya - A/HRC/RES/42/16 “Har bir insonning jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yuqori darajasiga erishish huquqi”), shuningdek, Kun tartibida 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida va uning kompleks tamoyili, unga ko‘ra, hech kim orqada qolmasligi kerak.

<https://undocs.org/ru/A/HRC/RES/42/16020>

Ushbu strategiya 2030 yilga borib har 100 000 ayolga 4 ta kasallanish darajasiga erishish maqsadida bachadon bo‘yni saratonining oldini olish va nazorat qilish bo‘yicha kompleks yondashuvni tavsiya qiladi uni amalga oshirishning quyidagi mezonlari mavjud:

- 90% qizlar 15 yoshgacha OPVga qarshi emlanishi kerak;
- Ayollarning 70 foizi 35 yoshda va 45 yoshda yana yuqori samarali testdan o‘tishi kerak;
- bachadon bo‘yni saratoni va invaziv saratoni bilan kasallangan ayollarning 90 foizini davolash.

Agar ushbu maqsadlarga erishilsa, 2030 yilgacha bachadon bo‘yni saratonidan 300 000 o‘limning oldini olish mumkin. Bundan tashqari, 2030 yilga borib 90-70-90 maqsadlarga erishish orqali 2120 yilgacha bachadon bo‘yni saratonidan 62 million o‘limning oldi olinadi.

<https://gco.iarc.who.int/media/globocan/factsheets/cancers/23-cervix-uteri-fact-sheet.pdf>

<https://apps.who.int/iris/handle/10665/104174>

<http://gco.iarc.fr/>

[https://unitaid.org/assets/Cervical\\_Cancer\\_Technology-landscape-2019.pdf](https://unitaid.org/assets/Cervical_Cancer_Technology-landscape-2019.pdf)

## 2.2. Epidemiologiya.

Dunyo bo‘ylab har daqiqada bir ayol bachadon bo‘yni saratoni tufayli vafot etadi. Kasalliklarning 85% rivojlanayotgan mamlakatlarda uchraydi. Kasallik va o‘lim ko‘rsatkichlari barqaror o‘sib bormoqda.

O‘zbekistonda 2017-yilda 1556 nafar bachadon bo‘yni saratoni aniqlangan va bachadon bo‘yni saratoni tufayli 994 nafar ayol vafot etgan, 2021-yilda 1827 nafar bachadon bo‘yni saratoni aniqlangan, 1103 nafar ayol vafot etgan. Prognozlarga ko‘ra, 2030 yilga kelib kasalliklar soni yiliga 2100 taga, o‘lim holatlari esa 1300 taga etadi.

## 2.3. Ta'riflar.

**Servikal intraepitelial neoplaziya (Cervical Intraepithelial Neoplasia - CIN)** – bu kasalliklar guruhi, ko‘p qavatli yassi epiteliyining etilishining, differensasiyasining va stratifikasiyasining buzilishi bilan harakterlanadi. CIN uchinchi bosqichi, yuqori onkologik xavfga ega odam

papillomaviruslari (OPV) sabab bo'lgan doimiy infeksiya tomonidan ishga tushiriladi, bu zararlarning invaziyaga o'tishigacha bo'lgan jarayonni qo'llab-quvvatlaydi. CIN I regressiya ehtimoliga ega bo'lib, bachadon bo'yni saratoniga olib keladigan saraton oldi deb hisoblanmaydi, CIN I ning kam qismi CIN II-III ga o'tishi mumkin – bu haqiqiy saraton oldi holat hisoblanadi. Shuningdek, CIN II-III ni CIN I shakllanishisiz ham rivojlanishi mumkin.

**LSIL** – low-grade squamous intraepithelial lesions –intraepitelial yassi hujayrani past darajadagi zararlanishi. LSIL tarkibiga koylositoz, CIN I va bachadon bo'yni kondilomasi kiradi.

**HSIL** – high grade squamous intraepithelial lesions –intraepitelial yassi hujayrani yuqori darajadagi zararlanishi CIN II (o'rtacha displaziya) va CIN III (og'ir displaziya va invaziv karsinoma (CIS) kiradi. HSIL bachadon bo'yni saraton oldiga ishora kiladi.


## 2.4. Kasallik yoki holatning etiologiyasi va patogenezini.

CIN va BBS rivojlanishining asosiy etiologik omili yuqori onkogenik odam papillomavirusi (OPV) hisoblanadi. Bugungi kunda quyidagi OPV turlari ma'lum va diagnostika qilinadi: 16, 18, 31, 33, 35, 39, 45, 51, 52, 56, 58, 59, 66, 68. Infeksiyalash va bachadon bo'yni saratonining rivojlanishi o'rtasidagi uzoq davr, tartibga solingan skriningni samarali qilish imkonini beradi, bu esa bachadon bo'yni saratonidan kasallanish va o'limni kamaytirishga yordam beradi. OPV – bu teri va shilliq qavatlarini zararlaydigan va onkogenez potensialiga ega bo'lgan keng tarqalgan va o'zgaruvchan viruslar guruhidir (1-rasm).

### OPV yuqish va yuqtirish yo'llari:

1. Jinsiy yo'l. OPV infeksiyasi genital-genital jinsiy aloqa, manual-genital va oral-genital jinsiy aloqa orqali sodir bo'ladi.
2. Vertikal yo'l. Homiladorlik davrida bachadon bo'yni epiteliyasining OPVga sezgirligi ortishi isbotlangan.
3. Maishiy yo'l. Virus ichki kiyim, jarrohlik qo'lqoplari, biopsiya uchun jarrohlik asboblari va OPV bilan ifloslangan boshqa narsalar orqali yuqishi mumkin. Tibbiyot xodimlari genital tuklarni lazer bilan yo'q qilish paytida hosil bo'lgan tutunni nafas olish orqali OPV bilan kasallanishi mumkin.

1-Rasm. Odam papillomavirusi



Inkubasion davr 1 oydan 6 oygacha davom etadi va virusning zararlangan to'qimalarda eng yuqori miqdori 6-chi oyda aniqlanadi. OPV yuqori onkogenik xavfga ega bo'lgan viruslar, silindrik epiteliya ostidagi polipotent hujayralar va ko'payayotgan hujayralarni, transformasiya zonasining hosil bo'layotgan hududida, uning yuqori chegarasida – o'tish zonasida, shuningdek, undan yuqorida joylashgan kanal va endoservikal kriptalarda zararlaydi.

Virusning dastlabki genlari ta'sirida metaplaziyaning fiziologik jarayoni etuk hujayralarning haddan tashqari ko'payishi va neoplastik hujayralarning o'sib borayotgan massasini trofik qo'llab-quvvatlash uchun neovaskulyar tarmoqning shakllanishi tufayli g'ayritabiiy xususiyatga ega bo'ladi. Anormal hujayralar, genetik shikastlanishning og'irligiga va neoplaziya darajasiga ko'ra, epiteliya qatlaminin uchdan bir qismidan butun qalinligini egallaydi, tomirlar tarmog'i bilan o'ralgan interakantotik bo'shliqlarda klasterlarda joylashgan. Bu tomirlar tarmog'i, «nuqtaviy» tarzda papillyarlarning uchlarida yoki gorizontol ravishda joylashgan tomirlar shaklida, etilmagan hujayralar massasini o'rab turadigan, morfologik substrat bo'lib, anormal kolposkopik tasvirlarning (AKT) yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, masalan, turli qalinlikdagi aseto-oq epiteliiy (AOE), nozik yoki qo'pol mozaika va punktuasiya, papillyalar, tizmalar, plastlar.

<https://apps.who.int/iris/handle/10665/104174>

<http://gco.iarc.fr/>

[https://unitaid.org/assets/Cervical\\_Cancer\\_Technology-landscape-2019.pdf](https://unitaid.org/assets/Cervical_Cancer_Technology-landscape-2019.pdf)

## 2.5. Papillomavirus infeksiyasining kechishi.


OPV infeksiyasining shakllari o'zgaruvchan va ular bo'linadi:

- Klinik – ko'z bilan bevosita ko'rinadi;
- subklinik – faqat kolposkopiya, sitologik yoki gistologik tekshiruv vaqtida aniqlanadi;
- latent - OPV DNKsi aniqlanganda morfologik anormalliklarning yo'qligi.

OPV epiteliyaga turli yo'llar bilan ta'sir qilishi mumkin: yaxshi sifatli hosilalar (papillomalar, kondilomalar) paydo bo'lishiga yoki OPV DNK ning hujayra geni bilan birikmasiga yordam beradi, bu turli darajadagi displaziya (neoplaziya) va keyinchalik saratonga olib keladi (ko'pincha bachadon bo'yni transformasiya zonasini).

Kasallik yashirin kurs bilan tavsiflanadi, unda ko'pincha klinik ko'rinishlar mavjud emas. 30% hollarda OPV aniqlanadi va sitologik tekshiruvdagi xarakterli o'zgarishlar ko'pincha 6-12 oy ichida o'z-o'zidan yo'qoladi (o'tkinchi yoki yashirin infeksiya), hech qanday zarar yoki OPV infeksiyasining mavjudligini qoldirmaydi. (2-rasm).

2-Rasm. Papillomavirus infeksiyasining kechishi.




OPV ning uzoq muddatli davom etishi (2 yildan ortiq) neoplaziya rivojlanishining asosiy omilidir. Displastik epiteliya zonalarini orqali normal epiteliyadan intraepitelial saratonga o'tishi isbotlangan. Ushbu o'zgarishlar zonalarini nafaqat bir-biri bilan birlashtirilgan, balki bosqichma-bosqich neoplastik jarayonning turli bosqichlarini hamdir.

Neoplastik o'zgarishlar bachadon bo'yni qin qismining ko'p qavatli yassi epiteliiysida ham, transformasiya zonasida va bachadon bo'yni kanalida shilliq qavatning yassi hujayrali metaplaziya joylarida sodir bo'ladi va keyin qin qismga tarqaladi.

Displaziya bir vaqtning o'zida bachadon bo'yni bir nechta sohalarida rivojlanishi mumkin (3-

rasm). Bunday holda, ko'pincha bir bemorda turli darajadagi neoplaziyalar mavjud bo'lishi mumkin.

### 3-Rasm. Bachadon bo'yni displaziyasining rivojlanish bosqichlari



**OPV infeksiyasi va bachadon bo'yni saratoni rivojlanishiga sabab bo'lgan omillarga kiradi:**

- jinsiy hayotning erta boshlanishi,
- bir nechta jinsiy sheriklarning mavjudligi,
- jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar,
- ko'p tug'ish,
- endogen omillar (immunitetning pasayishi, vitamin tanqisligi),
- OPV-musbat ayollar tomonidan estrodiol oral kontraseptivlaridan uzoq muddat foydalanish
- chekish,
- spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish.

<https://apps.who.int/iris/handle/10665/104174>

<http://geo.iarc.fr/>

### 2.6. Kasallik yoki holatning klinik ko'rinishi.

CIN I-III bo'lgan bemorlarning aksariyatida klinik ko'rinishlar yo'q (asimptomatik holat). Jinsiy yo'ldan "kontakt" qonli ajralmalar juda kam uchraydi.

<https://apps.who.int/iris/handle/10665/104174>

<http://geo.iarc.fr/>

### 2.7. Bachadon bo'yni shilliq qavatining ko'p qavatli yassi epiteliyasining intraepitelial neoplaziyasi diagnostikasi.

**Tashxis qo'yish mezonlari:**

Bachadon bo'yni kasalliklarini tashxislash usullari:

- bachadon bo'ynini ko'zgularda tekshirish,
- sitologik tekshirish,
- PZR DNK OPV,
- kengaytirilgan kolposkopiya,
- bachadon bo'yni biopsiyasi,
- bachadon bo'yni biopsiya materialini gistologik tekshirish - tashxisni tekshirish uchun o'tkaziladi.

## 2.8. Kasallik yoki holatning tasnifi.

Bachadon bo'yni patologiyasini tashxislashda bachadon bo'yni surtmalarining sitologiyasi, kengaytirilgan kolposkopiya va bachadon bo'yni biopsiyalarining gistologik tekshiruvi qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda bachadon bo'yni kasalliklarining umumiy qabul qilingan sitologik tasnifi **Betesda tasnifi (Terminology Bethesda System, TBS)**

[https://www.rcrm.by/upload/science/posob\\_doctor/2021-12.pdf](https://www.rcrm.by/upload/science/posob_doctor/2021-12.pdf)

[https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/144785/9789241548953\\_eng.pdf?sequence=1](https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/144785/9789241548953_eng.pdf?sequence=1)

Betesda tizimi tasnifining asosiy toifalari:

### **Bachadon bo'yni yassi epiteliysini baholash uchun:**

- **NILM** – negative for intraepithelial lesion or malignancy–intraepitelial zararlanishlar va yomon sifatli jarayonlar yo'q;
- **ASC** – atypical squamous cells – atipiyaga shubha qilingan yassi hujayrali hujayralar;
- **ASC-US** – atypical squamous cells undetermined significance –aniq bo'lmagan tarkibli yassi hujayrali atipik hujayralar (reaktivdan ko'ra muhimroq bo'lgan, ammo CIN tashxisini qo'yish uchun miqdoriy yoki sifat jihatidan etarli bo'lmagan hujayralardagi o'zgarishlar);
- **ASC-H** – atypical squamous cells cannot exclude HSIL – HSILni istisno qilmaydigan atipik yassi hujayralar (ASC-US va HSIL o'rtasida joylashgan toifa);
- **LSIL** – low-grade squamous intraepithelial lesions –intraepitelial yassi hujayrani past darajadagi zararlanishi. LSIL tarkibiga koylositoz (OPV infeksiyasi), CIN I (engil displaziya) va bachadon bo'yni kondilomasi kiradi;
- **HSIL** – high grade squamous intraepithelial lesions –intraepitelial yassi hujayrani yuqori darajadagi zararlanishi. HSILlar orasida CIN II (o'rtacha displaziya), CIN III (og'ir displaziya) va preinvaziv saraton (CIS);
- **CIS** – carcinoma in situ - invaziv yassi hujayrali karsinoma.

### **Bachadon bo'yni bezli epiteliysini baholash uchun:**

- **AGC** – atypical glandular cells of favor neoplastic – atipiyaga shubha qilingan bezli hujayralar;
- **AGC-US** – atypical glandular cells of undetermined significance – anik bo'lmagan tarkibli atipik bezli hujayralar;
- **AIS** – endocervical adenocarcinoma in situ – endoservikal adenokarsinoma in situ;
- **Adenocarcinoma** – adenokarsinoma.

Ushbu tizimga muvofiq sitologik tekshiruv xulosasini berish imkonini beradi:

- sitologik hisobotlar formatini standartlashtirish va saraton oldining mohiyatini yaxshiroq tushunish;
- yassi epiteliy uchun ASC-US/ASC-H va bezli epiteliy uchun AGC-US/AGC toifalarini aniqlash sitologik skriningning diagnostik sezgirligini oshirish imkonini beradi.

[https://www.rcrm.by/upload/science/posob\\_doctor/2021-12.pdf](https://www.rcrm.by/upload/science/posob_doctor/2021-12.pdf)

**Betesda tasnifidan oldin Papanikolau tasnifi** mavjud bo'lib, u hozirda bachadon bo'yni shilliq qavatining intraepitelial displaziyasi tashxisida qo'llanilmaydi:

**1-sinf** - normal sitologik rasm (salbiy natija);

**2-sinf** - qin va (yoki) bachadon bo'yni yallig'lanishi natijasida yuzaga keladigan hujayra morfologiyasining o'zgarishi;

**3-sinf** - yadrolari va sitoplazmasi anormalliklari bo'lgan yagona hujayralar (yomon sifatli yangi hosilaga shubha);

**4-sinf** – yomon sifatlikning aniq belgilari bo'lgan alohida hujayralar.

1-jadvalda bachadon bo'yni saraton oldi zararlanishlari tasniflarining o'zaro bog'liqligi ko'rsatilgan.

**1-jadval. Bachadon bo‘yni saraton oldi zararlanishlari tasniflarining o‘zaro bog‘liqligi/**

| Papanikolau tizimi  | JSSTning tavsif tizimi              | CIN                                  | Terminologik Betesda tizimi                            |
|---|-------------------------------------|--------------------------------------|--|
| 1-sinf (normal)   | Yomon sifatli hujayralar yo‘q       | Neoplastik o‘zgarishlarning yo‘qligi | Normal   |
| 2-sinf (epitelial metaplaziya, yallig‘lanish turi)                | Yallig‘lanish bilan bog‘liq atipiya |                                      | ASC hujayralarida reaktiv o‘zgarishlar: ASCUS; ASC - N |
| 3-sinf ("diskarioz")  | Engil displaziya                    | CIN I, koylositoz                    | LSIL   |
|   | O‘rtacha displaziya                 | CIN II                               | HSIL   |
| 4-sinf (saraton yoki karsinoma in situ uchun shubhali hujayralar) | Og‘ir displaziya                    | CIN III                              |  |
|   | Karsinoma in situ                   |                                      |  |
| 5-sinf (saraton)  | Invaziv karsinoma                   | Karsinoma                            | Karsinoma  |

Tashxisni tekshirish uchun suyuqlik sitologiyasi va kengaytirilgan kolposkopiya bilan so‘ng biopsiyaning gistologik tekshiruvi bilan bachadon bo‘yni biopsiyasini o‘tkazish tavsiya etiladi.

**JSSTning 2014 yilgi Xalqaro gistologik tasnifiga** ko‘ra, intraepitelial yassi hujayralarni zararlanishlar (SIL) quyidagilarga bo‘linadi:

- **CIN I** – intraepitelial yassi epiteliyning engil darajadagi shikastlanishi;
- **CIN II-III** – intraepitelial yassi epiteliyning yuqori darajadagi shikastlanishi.

[https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/144785/9789241548953\\_eng.pdf?sequence=1](https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/144785/9789241548953_eng.pdf?sequence=1)

Bachadon bo‘yni yuzaki hujayra qatlamining shikastlanish chuqurligiga qarab **R. M. Richart (1968) tomonidan gistologik tasnifi:**

- **CIN I** (engil darajali displaziya) – inson papillomavirusi infeksiyasining belgilari (koylositoz va diskeratoz). Hujayra qatlami qalinligining 1/3 qismiga zarar etkazish;
- **CIN II** (o‘rtacha darajali displaziya) – 1/2 hujayra qatlamining qalinligi ta'sir qiladi;
- **CIN III** (og‘ir darajali displaziya va preinvaziv saraton) – zararlanish hujayra qatlamining 2/3 qismidan ko‘prog‘ini yoki uning butun qalinligini egallaydi, ammo uning ostidagi stromaga hech qanday invaziya yo‘q.

**Shikoyatlar va anamnez.**

Har bir tashrifda shikoyatlar va umumiy holat baholanadi.

**C** CIN rivojlanishi uchun xavf omillarini aniqlash uchun barcha ayollarga anamnez ma'lumotlarini tahlil qilish tavsiya etiladi

CIN rivojlanishi uchun xavf omillari:

- jinsiy faoliyatning erta boshlanishi,
- jinsiy sheriklarning ko‘pligi va tez-tez o‘zgarishi;
- chekish,
- birga keladigan jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar,
- ko‘p sonli homiladorlik va tug‘ilish,
- immunitetni zaiflashtiradigan kasalliklarning mavjudligi (gepatit B, C, OIV);

- immunosuppressiv terapiya,
- kombinatsiyalangan oral kontraseptivlaridan uzoq muddatli foydalanish.

Jinsiy hayot boshlanganlik yoshi va jinsiy sheriklar sonini aniqlashtirish kerak. Jinsiy yoʻldan "kontaktli" qonli ajralmalar boʻlsa, uning davomiyligini, bachadon boʻyni tomonidan oʻtkazilgan jarrohlik aralashuvlar tarixini, OPV infeksiyasini aniqlash, ilgari oʻtkazilgan bachadon boʻyni skrining natijalarini baholash lozim. CIN I/II/III, shu jumladan preinvaziv bachadon boʻyni saratoni (CIS) patognomonik klinik koʻrinishga ega emas va faqat morfologik usullar bilan tashxislanadi.

<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/25984847/>

[https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/144785/9789241548953\\_eng.pdf?sequence=1](https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/144785/9789241548953_eng.pdf?sequence=1)

### Anamnez yigʻish.

Kasallik tarixi quyidagi ma'lumotlarni oʻz ichiga olishi kerak:

- shikoyatlar mavjudligi (kamdan-kam hollarda jinsiy a'zolaridan "kontakt" qonli ajralmalar, ogʻriqning mavjudligi va tabiati va boshqalar),
- yosh,
- kasbiy xavflarning mavjudligi,
- yomon odatlarning mavjudligi (chekish, alkogol, giyohvandlik),
- oila tarixi (1-darajali qarindoshlarda qandli diabet, tromboembolik asoratlar (TEA), gipertoniya, ruhiy kasalliklar, akusherlik va perinatal asoratlar kabi kasalliklar mavjudligini koʻrsatishi),
- hayz koʻrishning tabiati (hayz koʻrish yoshi, hayz davrining davomiyligi va muntazamligi, hayzlik qon ketishining davomiyligi va hajmi, ogʻriq),
- jinsiy hayotning tabiati: u necha yoshda boshlangan, qaysi turdagi nikoh, uning davomiyligi, jinsiy hayot xususiyatlari (libido, orgazm, jinsiy aloqaning chastotasi, ogʻriqli aloqa - disparuniya), jinsiy sheriklar soni;
- oldingi kontrasepsiya usullari;
- akusherlik tarixi (anamnezdagi homiladorlik va tugʻilishlar soni va ularning natijalari, homiladorlik, tugʻish va/yoki abortning asoratlari mavjudligi, tugʻilgan bolalarning vazni va boʻyi koʻrsatkichlari va sogʻligʻining holati, homiladorlikka erishish usuli - oʻz-oʻzidan homiladorlik yoki ÈRT natijasida homiladorlik);
- oʻtmishdagi va mavjud boʻlgan ginekologik kasalliklar, chanoq a'zolarida jarrohlik aralashuvlar,

### Fizikal tekshiruvlar.

**C** Bachadon boʻyni patologiyasini aniqlash maqsadida barcha bemorlar qin va bachadon boʻyni koʻzgusi tekshiruvdan oʻtish tavsiya etiladi

Vizual usul bachadon boʻyni intraepitelial zararlanishlarini aniqlashga imkon bermaydi. Yakuniy tashxisni aniqlash uchun ekzoserviks va endoserviksdan surtmalarni sitologik tekshirish, OPV testi, kolposkopiya va biopsiya materialining gistologik tekshiruvi bilan servikal biopsiya talab qilinadi.

[https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/144785/9789241548953\\_eng.pdf?sequence=1](https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/144785/9789241548953_eng.pdf?sequence=1)

### Laborator diagnostik tekshiruvlar.

**A** CINni aniqlash uchun 21 yoshdan 65 yoshgacha boʻlgan barcha ayollarda 3 yillik interval bilan bachadon boʻyni surtma sitologiyasini oʻtkazish tavsiya etiladi

Turli xil boʻyash usullaridan foydalangan holda ekzo- va endoserviksdan surtmalarni sitologik tekshirish tarixan birinchi va asosiy skrining vositasi boʻlib kelgan, bu usulning CIN II +

(sezuvchanlik – 68,9%, o‘ziga xoslik – 97,2%)ni aniqlash uchun sezgirligi etarli emasligiga qaramay.

Dastlabki surtmalardan keyin 1,5 oy ichida olingan takroriy surtma natijalarining past takrorlanishini hisobga olish kerak. Anormal surtmalarni qayta ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

An’anaviy sitologik surtmalarning taxminan 10% etarli emas, bu noto‘g‘ri namuna olish va tayyorlash usullari bilan bog‘liq.

Suyuqlik sitologiyasi (liquid-based cytology), CIN ni aniqlashda samaraliroq bo‘lib, asosan, noaniq namunalarning sonining ko‘plab kamayishi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, suyuqlik sitologiyasi neoplaziyalarni aniqlashda ham samaraliroq hisoblanadi. Texnika namunalarni quritish bilan bog‘liq artefaktlar sonini kamaytiradi, eritrositlar va yallig‘lanish eksudati bilan ifloslanishining oldini olishga imkon beradi, bu esa etarli bo‘lmagan surtmalar sonini sezilarli darajada kamaytiradi.

Bachadon bo‘ynidan sitologik tekshiruvni 21 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan barcha ayollarga 3 yilda bir marta o‘tkazish tavsiya etiladi.

Sitologik tekshiruvda eng muhim diagnostik belgilarga quyidagilar kiradi: hujayra va yadroning polimorfizmi, sitoplazmaning sezilarli anizoxromiya, yuqori yadrositoplazmatik indeks, xromatinning hujayralarda tengsiz va qattiq tarqalishi, yadrochalar sonining ortishi, mitoz bo‘linish shakllarining aniqlanishi.

Sitologik usulning kamchiliklaridan biri infiltrativ o‘shish belgilari aniqlanmasligidir, chunki sitologik materialda to‘qimalar substrati mavjud emas, bu usulning diagnostik chegaralarini cheklaydi. Sitologik diagnostikadagi qiyinchiliklar shundan iboratki, zararlanish ko‘pincha ko‘psonli bo‘ladi. Ko‘pincha eng engil displaziya periferiyaga tarqalishga moyil bo‘lsa, CIS va invaziv bachadon bo‘yni raki asosan markazda joylashadi.

HPV (Human Papillomavirus) infeksiyasi BBS rivojlanishida muhim rol o‘ynaganligi sababli, papillomavirus infeksiyasini diagnostikada asosiy o‘rinni molekulyar-biologik metodlar egallaydi, bu metodlar virusning DNK zarralarini aniqlashga qaratilgan.

<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/27598026/>

<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31714325/>

[https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/144785/9789241548953\\_eng.pdf?sequence=1](https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/144785/9789241548953_eng.pdf?sequence=1)

## OPV testlari turlari.

1. **Polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR)** – virus DNKsining ma'lum bir qismini ko‘paytirish orqali tur va turiga xos primerlar yordamida YuKX OPV aniqlanadi, shu bilan birga virus turini aniqlash imkoniyati mavjud. OPV turini tahlil qilishda 10, 14, 21 ta turlari tavsiya etiladi.
2. **RT (real-time) PZR** – real vaqtda PZR – virusning yuklamasi logarifmlarda baholanadi, klinik jihatdan ahamiyatli OPV miqdorlari, shuningdek, neoplaziyaning mavjudligi bilan bog‘liq xavflar, tranzitor va bartaraf etilgan OPV-infeksiyalaridan farqlanadi.
3. **Sifatli DNK PZR testlari** – 14 turdagi OPV uchun YuKX, ayniqsa, “xavfli” turlarini (16 va 18 turlarini) qisman genotiplashni o‘z ichiga olgan testlar. OPV 16, 18, 31, 45, 51, 52 va 59 turlarini aniqlashga imkon beradigan test tizimlari ishlab chiqilgan va qo‘llanilmoqda, boshqa turlar esa ikkita guruhga ajratiladi: 33, 56, 58, 66 va 35, 39, 68.
4. **Ikki tomonlama gibridlangan tutish testi (Hybrid Capture II – HC2) = HPV Digene-testi** – Bu test OPV DNK qismlarini RNK sondalari bilan gibridizasiya qilishga asoslanadi, ular fluoressensiya markerlari bilan bog‘langan antitelalar yordamida ushlanadi. Musbat natija 14 turdagi OPV uchun klinik jihatdan ahamiyatli konsentrasiyani ko‘rsatadi, 1 ml namunada OPV DNK nusxalari sonini aniqlaydi. Testning salbiy natijasi CIN II-III mavjudligini deyarli istisno qiladi.
5. **OPV RNK aniqlash asosidagi testlar: PreTect OPV-Proof** (E6/E7 mRNK amplifikasiyasi yuqori xavfli OPV turlari (16, 18, 31, 33 va 45) va **Aptima (Gen-Probe)** – 14 turdagi OPV uchun mRNK E7 ekspressiyasini aniqlashga asoslangan va qisman genotiplashni o‘z ichiga oladi.

|   |  |
|---|--|
